

Mustaqillik davrida biror marta bu jarayon o'tkazilmagan



Ma'lumki, BMTning 2015 yil 10 iyundagi "2020 yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar" rezolyutsiyasi qabul qilingan va unga asosan, BMTga a'zo davlatlar kamida bir marta aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazishi belgilab qo'yilgan. Ayni paytda MDH mamlakatlarida bu jarayonga tayyorgarlik boshlangan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida hali biror marta bunday hisob-kitob ishlari olib borilmagan. Bunday sanoq so'nggi bor sobiq ittifoq davrida, aniqrog'i, 1989 yilda o'tkazilgan edi. Holbuki, xalqaro tajribadan ma'lumki, ko'pgina mamlakatlarda aholini ro'yxatga olish tadbiri kamida har o'n yilda bir marotaba tashkillashtirilishi ana'naga aylangan. Respublikamizda ham endi ana shunday muhim jarayon yo'lga qo'yiladi. Bu borada davlatimiz rahbarining 2019 yil 5 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.